

## Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari<sup>1</sup>

2026-yil yanvar-iyul


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasininhahar va tumanlarkesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

### I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2026-yil yanvar-iyul oylari dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **24 999,6** mlrd so'mni tashkil etdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **117,4%** ni tashkil etib, uning hajmi esa **4 862,7** mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

**Ma'lumot uchun:** 2025-yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar hajmi **20 136,9** mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa **113,1 %** ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2026-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan (**6 803,0** ming so'm) 2025-yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 464,1** ming so'mga yoki **14,9 %** ga o'sib, **8 267,1** ming so'mni tashkil etgan.

<sup>1</sup>2025-yil yanvar-iyul oylari hajmi va 2026-yil yanvar-iyul oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

2026-yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **18 563,1** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **74,3** % ini, jumladan, **16,5**% ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

## **II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi**

Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari  
2026-yil yanvar-iyul

|                             | Hajmi, mlrd so'm | Ulushi, % da | O'sish sur'ati, % da |
|-----------------------------|------------------|--------------|----------------------|
| <b>Surxondaryo viloyati</b> | <b>24 999,6</b>  | <b>100,0</b> | <b>117,4</b>         |
| Termiz sh.<br>tumanlar      | 4 185,0          | 16,7         | 122,8                |
| Oltinsoy                    | 626,7            | 2,5          | 120,5                |
| Angor                       | 679,7            | 2,7          | 120,4                |
| Bandixon                    | 395,6            | 1,6          | 120,7                |
| Boysun                      | 510,4            | 2,0          | 120,0                |
| Muzrabot                    | 667,1            | 2,7          | 120,7                |
| Denov                       | 2 007,7          | 8,0          | 121,5                |
| Jarqo'rg'on                 | 882,5            | 3,5          | 120,6                |
| Qumqo'rg'on                 | 1 309,2          | 5,2          | 120,1                |
| Qiziriq                     | 579,2            | 2,3          | 121,2                |
| Sariosiyo                   | 933,9            | 3,7          | 121,8                |
| Termiz                      | 768,3            | 3,1          | 121,8                |
| Uzun                        | 645,8            | 2,6          | 120,7                |
| Sherobod                    | 843,1            | 3,4          | 120,9                |
| Sho'rchi                    | 843,7            | 3,4          | 120,7                |

**Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi](#)

## **III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-martdagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar moliyaviy xizmatlarning 33,4 % ga o'sishi (umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'sishiga qo'shgan hissi 4,7 punkt), savdo xizmatlarning 14,8 % ga (o'sishga qo'shgan hissi 4,6 punkt), yashash va ovqatlanish 8,2 % ga (o'sishga qo'shgan hissi 2,0 punkt), transport xizmatlarning 25,8 % ga o'sishi (umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'sishiga qo'shgan hissi 2,8 punkt), ta'lim xizmatlarining 6,1 % ga (o'sishga qo'shgan hissi 0,2 punkt), boshqa xizmatlarining 0,3 % ga (o'sishga qo'shgan hissi 0,0 punkt) oshishi bo'ldi.

*Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-iyul)*

|                                                                                        | Hajmi, mlrd so'm |                | O'sish sur'ati,<br>% da |
|----------------------------------------------------------------------------------------|------------------|----------------|-------------------------|
|                                                                                        | 2025-y.          | 2026-y.        |                         |
| <b>Xizmatlar – jami</b>                                                                | <b>20136,9</b>   | <b>24999,6</b> | <b>117,4</b>            |
| <i>shundan:</i>                                                                        |                  |                |                         |
| aloqa va axborotlashtirish xizmatlari                                                  | 812,0            | 995,6          | 115,4                   |
| moliyaviy xizmatlar                                                                    | 2662,8           | 3500,4         | 128,9                   |
| transport xizmatlari                                                                   | 2013,9           | 2645,2         | 123,9                   |
| <i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>                                          | 1815,4           | 2347,1         | 121,5                   |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari                                                      | 5101,5           | 6314,2         | 113,1                   |
| savdo xizmatlari                                                                       | 6225,3           | 7571,6         | 116,2                   |
| ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar                                                  | 358,5            | 426,5          | 115,3                   |
| ta'lim sohasidagi xizmatlar                                                            | 663,8            | 712,0          | 106,5                   |
| sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar                                                 | 260,4            | 329,4          | 119,3                   |
| ijara xizmatlari                                                                       | 232,0            | 310,0          | 123,1                   |
| kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar                       | 427,8            | 505,6          | 114,0                   |
| shaxsiy xizmatlar                                                                      | 476,0            | 582,9          | 111,3                   |
| me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 182,3            | 209,8          | 103,4                   |
| boshqa xizmatlar                                                                       | 720,7            | 896,6          | 117,9                   |


**Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2026-yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari **30,3 %**, yashash va ovqatlanish xizmatlari **25,3 %**, moliyaviy xizmatlar **14,0 %**, transport xizmatlari **10,6 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,0 %**, boshqa xizmatlar esa **3,6%** ulushini tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:** 2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida savdo xizmatlari 30,9 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari 25,3 %, moliyaviy xizmatlar 13,2 %, transport xizmatlari 10,0 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 4,0 %, boshqa xizmatlar esa 3,6 % ulushini tashkil etgan.*


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi  
2026-yil yanvar-iyul % da



**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari** hajmining o'sishiga **telekommunikatsiya xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2026-yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **66,0** foizni tashkil etdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan esa **8,4** foizga o'sgan.

2026-yilning yanvar-iyul oylarida **moliyaviy xizmatlar** tarkibidagi **moliyaviy xizmatlar, sug'urta va pensiya ta'minoti xizmatidan tashqari** o'sish kuzatildi. 2025-yilning mos davriga nisbatan hajmi **3 283,8** mlrd so'mga yoki **29,4** foizga o'sishi kuzatilgan.

**Moliyaviy xizmatlar, sug'urta va pensiya ta'minoti xizmatidan tashqari  
xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi**



2026-yilning tahlil qilinayotgan davrida **transport** sohasida **omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari (149,6 %)**, **pochta va kuryerlik (137,0 %)** xizmatlarida yuqori o'sish sur'ati qayd etildi. Havo transporti xizmatlarining o'sishiga xalqaro va ichki turizmning rivojlanishi, parvozlar sonining ortishi, shuningdek, ko'plab mamlakatlar uchun vizasiz rejimning joriy etilishi ta'sir ko'rsatdi. Elektron tijoratning rivojlanishi (OZON, Wildberries, AliExpress, mahalliy bozorlarda onlayn xaridlarning ko'payishi), Express24, MyTaxi Delivery, Yandex Go, Uzum Tezkor va boshqa xususiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, logistika infratuzilmasining takomillashtirilgani pochta va kuryerlik xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga turtki bo'ldi. Aeroportlarni modernizatsiya qilish imkoniyatini oshirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga imkon beradi, bu esa o'z navbatida omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **97,8 %** ni tashkil etdi. 2026-yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **113,1 %** ni tashkil etdi.

#### **IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar**

##### **Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:**

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot(ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu**– xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanoktabrdigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlar bo'yicha **hisoblangan to'lovlarqo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarida sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlaribo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

## V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

**Chop etish uchun mas'ul:**  
Xizmatlar va savdo sohasi  
statistikasi bo'limi

**Manzil:** 180100, Surxondaryo  
viloyati, At-Termiziy ko'chasi, 7-uy  
**Pochta:** [info@surxonstat.uz](mailto:info@surxonstat.uz)  
**Tel.:** 75-90, 55-541-80-00

